

AYLANMA MABLAG‘LAR AYLANUVCHANLIGINI TEZLASHTIRISHGA OMILLAR TA‘SIRINI BAHOLASH

Fayziyev Oybek Raximovich

Alfraganus University Iqtisodiyot fakulteti,
“Moliya” kafedrası dotsenti, i.f.f.d. (PhD),
Toshkent kimyo xalqaro universiteti mustaqil izlanuvchisi
ORCID: 0000-0002-4001-1885
E-mail: fayziev.oybek@mail.ru

Annotatsiya

Mazkur maqolada korxona mulklarining tarkibiy qismi hisoblangan aylanma mablag‘lardan samarali foydalanish yo‘llari o‘rganilib, ularning aylanuvchanligini tezlashtirishga yoki sekinlashishiga ta‘sir qiluvchi omillar ochib berilgan. Shuningdek, aylanma mablag‘lar samaradorligini oshirishga doir takliflar va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: aylanma kapital, aylanma mablag‘, qo‘shimcha mablag‘, korxona mulki, korxona aktivi, aktivlarning aylanuvchanligini tezlashishi, aktivlarning aylanuvchanligini sekinlashishi.

Аннотация

В данной статье изучаются способы эффективного использования оборотных средств, являющиеся составной частью имущества предприятия, и выявляются факторы, влияющие на ускорение или замедление их оборачиваемости. Также были разработаны предложения и рекомендации по повышению эффективности использования оборотных средств.

Ключевые слова: оборотный капитал, оборотные средства, дополнительные средства, имущество предприятия, активы предприятия, ускорение оборачиваемости активов, замедление оборачиваемости активов.

Annotation

Abstract. This article examines the methods of efficient use of working capital, which is an integral part of the enterprise's property, and identifies the factors that influence the acceleration or deceleration of their turnover. Proposals and recommendations for improving the efficiency of using working capital were also developed.

Key words: working capital, current assets, additional funds, enterprise property, enterprise assets, acceleration of asset turnover, slowdown of asset turnover.

KIRISH

O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini modernizatsiyalash va ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish sharoitida qishloq xo‘jalik korxonalari, xususan, baliqchilik xo‘jaliklari oldida turgan bunday masalalardan biri o‘z aylanma kapitalining yetishmasligi hisoblanadi. Baliqchilik xo‘jaliklari tabiiy-iqlim va ekologik sharoitlar

ta'siriga jiddiy bog'liq bo'lib, aylanma kapitalning sifati hamda undan samarali foydalanishga yuqori darajada majburlirlar. Demak, ularni samarali tashkil etish va boshqarish uchun ulardan foydalanish samaradorligini tadqiq va tahlil qilishimiz zarur.

ADABIYOTLAR SHARHI

“Aylanma kapital quyidagi bir necha asosiy guruhlarga klassifikatsiya qilinadi: takror ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etishini hisobga olgan holda funksional mo'ljallanganligi bo'yicha; shakllantirish va moliyalashtirish manbalariga ko'ra; likvidlilik darajasiga qarab va boshqa belgilariga muvofiq”[T.S.Malikov, 2009].

“Aylanma mablag'lar korxona mulklarini tarkibiy qismi hisoblanadi. Ularning holati va samarali foydalanish – korxona faoliyati muvaffaqiyatining muhim sharti”[N.P.Shulyak, 2006].

“Aylanma mablag'lar – korxona aktivlarining harakatchan (mobil) qismi bo'lib, shuning uchun ularni moliyalashtirish ma'lum tarkibi va strukturasini saqlab turishga qaratiladi. Korxonaning aylanma mablag'lariga quyidagilar kiradi: tovar-moddiy qiymatliklar zaxiralari; debitorlik qarzlari; hisob-kitoblardagi mablag'lar; pul mablag'lari”[A.M. Babich, L.N. Pavlova, 2001].

METODOLOGIYA

Tadqiqot jarayonida avvalo umumiy metodologik asos sifatida dialektika; ilmiy tafakkur, analiz va sintez, induksiya va deduksiya, induktiv-deduktiv, abstrakt-mantiqiy metodlar, qiyoslash kabi nazariy umumilmiy metodlardan foydalanildi. Umumilmiy empirik metodlardan esa, ilmiy va qomusiy manbalarni sharhlash, kuzatish va retrospektiv tahlil usullari qo'llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Aylanma mablag'lar aylanuvchanligining tezlashishi natijasida ularning tejalishi mutlaq(absolyut) va nisbiy bo'lishi mumkin. Mutlaq(absolyut) tejalgan aylanma mablag'lar korxonada ishlab chiqarishni yanada kengaytirishga, yangi mahsulotlar ishlab chiqarilishini o'zlashtirishga, ta'minot va sotish jarayonlarini yaxshilashga hamda tadbirkorlik faoliyatini takomillashtirishning boshqa chora-tadbirlariga yo'naltiriladi. Aylanma mablag'larning nisbiy tejalishi korxonada ishlab chiqarish hajmi o'sishi natijasida aylanma mablag'lar aylanuvchanligi tezlashganida sodir bo'ladi. Bunda tejalgan aylanma mablag'lar aylanish(oborot)dan chiqarib olinmaydi, chunki ular tovar-moddiy qiymatliklar zaxirasida saqlanib turadi va ishlab chiqarishning o'sishiga xizmat qiladi. Aylanma mablag'larning mutlaq(absolyut) va nisbiy tejalishi yagona iqtisodiy asosga ega bo'lib, ularning qo'shimcha tejalishini bildiradi. Fikrimiz dalili sifatida, “TCT FISH Cluster” MCHJ ma'lumotlari (1-jadval) asosida aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligini har xil usullar bilan hisoblaymiz.

1-jadval

**«TCT Fish cluster» MCHJda aylanma aktivlardan foydalanish
samaradorligining tahlili, (2021-2023-yillar)¹**

№	Ko'rsatkichlar	2021-yil	2022-yil	2023-yil	Farq (+, -)
1	Sotishdan sof tushum(SST), ming so'm	35 342 459,58	31 134 159,89	29 027 417,99	- 6 315 041,59
2	Sof foyda (SF)	6 222 906,38	2 236 771,20	-7 149 421,27	-926 514,89
3	Aylanma aktivlarning yillik o'rtacha summasi (AA _o)	51 000 818,22	61 128 759,02	69 063 810,51	+18 062 992,29
4	AAlar aylanuvchanligi:				
	-kunlarda (K _{ay})	526,71	716,64	868,43	+341,72
	-marta (M _{ay})	0,69	0,51	0,42	-0,27
5	Aylanma aktivlar rentabelligi (R _{ay}), %	12,20	3,66	-10,35	-12,20
6	Aylanma aktivlar fond qaytimi (SST: AA _o), so'm	0,69	0,51	0,42	-0,27
7	Bir kunlik tushum (1 kunda), ming so'm	96 828,66	85299,07	79 527,17	-17 301,48
8	Aylanuvchanlik pasayishi natijasida qo'shimcha jalb qilingan	x	x	x	+27 176 025,41

2023-yilda aylanuvchanlikning sekinlashishi natijasida qancha qo'shimcha aylanma aktivlarning nisbiy jalb qilinishini(AA_n) hisoblaymiz:

$$AA_n = SST_1 \times (K_{b.1} - K_{b.0}); \quad (1)$$

$$AA_n = 29027417,99 \times (2,38 - 1,44) = +27\,285\,772,91 \text{ ming so'm. yoki,}$$

$$AA_n = SST_1 \times (D_{ayl.1} - D_{ayl.0}) : 365; \quad (2)$$

$$AA_n = 29027417,99 \times (868,43 - 526,71) : 365 = +27\,285\,772,91 \text{ ming so'm.}$$

«TCT Fish cluster» MCHJda 2023-yilda 2021-yilga nisbatan aylanma mablag'lar aylanuvchanligi yomonlashgan. Xususan, 2023-yilda aylanma mablag'lar aylanuvchanligi 868,43 kun (69 063 810,51:79 527,17) bo'lib, 2021-yilga nisbatan 341,72 kunga oshgan (868,43-526,71). Bu juda yomon ko'rsatkich, Natijada, aylanma mablag'larga ehtiyojning 27 285 772,91 ming so'mlik (79 527,17×341,72) oshishi korxonaga chetdan (ko'proq qarz hisobiga) qo'shimcha mablag'lar jalb qilish zaruratini vujudga keltirgan.

Aylanma mablag'lar rentabelligi ham 2021-yilda – 12,2 % (6 222 906,38: 51 000 818,22×100), 2022-yilda – 3,66 % (2 236 771,20:61 128 759,02×100) va 2023-yilni korxona -7 149 421,27 ming so'mlik sof zarar bilan yakunlab, zarar ko'rganlik darajasi -10,35 %ni tashkil etgan(-7 149 421,27: 69 063 810,51×100).

Umumiy xulosa shundan iboratki, tahlil qilingan so'nggi uch yil (2021-2023-y.y.) davomida aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligi juda yomonlashgan. Xususan, 2023-yilga kelib aylanma mablag'larning aylanuvchanligi 868,43 kun, ya'ni 2 yil 4 oydan ko'proq, bir yildagi aylanuvchanlik atigi 0,42-marta (29 027 417,99:69 063 810,51). Rentabellik manfiy, ya'ni zarar ko'rganlik darajasi -10,35 % va fond qaytimi esa 0,42 ni tashkil etgan.

¹ Toshkent viloyati, Quyichirchiq tumanidagi "TCT Fish cluster" mas'uliyati cheklangan jamiyatining 2021-2023-yillik hisobot ma'lumotlari asosida tuzilgan muallif hisob-kitobi

Aylanma mablag'lardan foydalanish samaradorligiga ko'plab omillar ta'sir ko'rsatadi. Ushbu omillardan asosan ikkitasi: sotishdan tushgan sof tushum (SST) va aylanma mablag'larning yillik o'rtacha qiymati ($AA_{o'}$) ta'sirini "tuzatilgan" ko'rsatkichlar uslubi bilan aniqlaymiz. Buning uchun, dastavval, "tuzatilgan" ko'rsatkich ($D_{ayl.t}$) — aylanma mablag'lar aylanuvchanligini hisobot yilidagi SST va bazis yilidagi $AA_{o'}$ asosida hisoblash uchun, yuqorida keltirilgan (3) formulani quyidagi ko'rinishga keltiramiz 3-2-jadvalda taqdim etamiz:

$$D_{ayl.t} = AA_{o'rt.0} \times 365 / SST_1, \quad (3)$$

Bunda, $AA_{o'rt.0}$ - bazis yilidagi aylanma mablag'lar o'rtacha qiymati, ming so'm; SST_1 - hisobot yilidagi SSTning o'rtacha qiymati, ming so'm;

Demak, $D_{ayl.} = 51000818,22 \times 365 / 29027417,99 = 641,3$

Ushbu tuzatish kiritilgan ko'rsatkich(641,3)ni bazis yilidagi aylanma mablag'lar aylanuvchanligi(526,71) bilan taqqoslab, umumiy tafovut(341,72)ning SST o'zgarishi hisobiga to'g'ri keladigan qismini aniqlaymiz ($641,3 - 526,71 = 114,59$). Demak, SSTning 6315041,59 ming so'mga kamayishi aylanma mablag'lar aylanuvchanligini 114,59 kunga sekinlashgan.

2-jadval

«TCT Fish cluster» MCHJda aylanma mablag'lar aylanuvchanligiga omillar ta'sirining tahlili (2021-2023-yillar)¹

№	Ko'rsatkichlar	2021-yil	2022-yil	2023-yil	Farq (+, -)	Omillar:	
						SST	$AA_{o'}$
1	Sotishdan sof tushum(SST), ming so'm	35 342 459,58	31 134 159,89	29 027 417,99	- 6 315 041,59	x	x
2	AAlar yillik o'rtacha summasi ($AA_{o'}$)	51 000 818,22	61 128 759,02	69 063 810,51	+18 062 992,29	x	x
3	AAlar aylanuvchanligi, kunlar	526,71	716,64	868,43	+341,72	+114,59	+227,13
4	2023-y. SSTni 2021-y.dagi $AA_{o'}$ qiymatiga tuzatish	x	x	641,3	x	x	x

Aylanma aktivlar yillik o'rtacha summasining 18 062 992,29 ming so'mga ko'payishi hisobiga esa, ular aylanuvchanligi 227,13 kunga sekinlashgan($868,43 - 641,3 = 227,13$).

Shunday qilib, "TCT Fish cluster" MCHJda aylanma mablag'lar aylanuvchanligining 2023-yilda 2021-yilga nisbatan 341,72 kunga sekinlashishi (yomonlashishi!) har ikkala omil (SST va $AA_{o'}$) hisobiga ham sodir bo'lgan. Xususan, AA aylanuvchanligi SST qiymatining kamayishi hisobiga 114,59 kunga, $AA_{o'}$ qiymatining kamayishi aylanuvchanligi 227,13 kunga, jami 641,3 kunga sekinlashgan ($114,59 + 227,13 = 641,3$). Albatta, bu juda salbiy holat.

¹ Toshkent viloyati, Quyichirchiq tumanidagi "TCT Fish cluster" mas'uliyati cheklangan jamiyatining 2021-2023-yillik hisobot ma'lumotlari asosida tuzilgan muallif hisob-kitobi

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahlil natijalaridan kelib chiqib shunday yakuniy xulosa qilishimiz mumkin. Aylanma kapitaldan foydalanish samaradorligi ichki va tashqi omillarga bogʻliq. Moddiy-texnika taʼminoti va sotishni (hisob-kitoblarni ham qoʻshgan holda) tashkil etish, xarajatlar va daromadlarni boshqarish siyosati, kreditlar va qarzlarni jalb etish – ishlab chiqarish va muomala sohasidagi aylanma kapitaldan foydalanish samaradorligiga taʼsir koʻrsatuvchi ichki omillar hisoblanadi. Korxona aylanma aktivlardan foydalanish samaradorligini oshirish, xususan ularning aylanuvchanligini tezlashtirish choralarini koʻrishi lozim. Bu nafaqat ushbu mablagʻlarga boʻlgan ehtiyojning umumiy pasayishiga, balki korxona moliyaviy holatining mustahkamlanishi, majburiyatlar boʻyicha toʻlovlarni oʻz vaqtida amalga oshirish uchun pul mablagʻlarining jamgʻarilishi, tannarxni pasaytirish va rentabellikni oshirishga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Malikov T.S. *Moliya: xoʻjalik yurituvchi subyektlar moliyasi*. Oʻquv qoʻllanma. –T.: “IQTISOD-MOLIYA”, 2009, — B. 93.
2. Шуляк П.Н. *Финансы предприятия: Учебник*. 6-е изд., перераб. и доп. — М.: Издательско-торговая корпорация «Дашков и К», 2006. — с. 226
3. Бабич А.М., Павлова Л.Н. *Финансы. Денежное обращение. Кредит: Учебник*. —М.: ЮНИТИ - ДАНА, 2001. — с. 322.
4. Toshkent viloyati, Quyichirchiq tumanidagi “TCT Fish cluster” mas’uliyati cheklangan jamiyatining 2021-2023-yillik hisobotlari.